

## O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI MULOQOT

**Salimova Marjona Abdurahim qizi**

SHDPI Pedagogika kafidra o‘qituvchisi

**Saidova Nargiza Botirovna**

ShDPI biologiya yo‘nalishi 2-kurs 1-23-guruh

**Annotatsiya:** O‘quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so‘zlashishni bilish lozim. So‘zlashishni, muloqot olib borishni doimo o‘rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so‘zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan muloqotni yo‘lga qo‘ya olishi lozim.

**Kalit so‘zlar:** muloqot, so‘z, shaxs, pedagogika, o‘quvchi.

**Kirish.** Muloqot - yunoncha so‘z, so‘zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, og‘zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so‘zlatuvidir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot bo‘lishi uchun o‘qituvchi etarli darajada qobiliyatga ega bo‘lishi kerak, hamda o‘z-o‘ziga doimo ba‘zi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarni e‘tiborini to‘plashi, darsga jalb qila olishi va turli motivatsiyalar bera olishi lozim. Darsni boshlashdan oldin o‘quvchilar bilan salomlashish va iliq muhit yaratish kerak. Darsda o‘quvchilar erkin fikrlay olishi va o‘z fikrini bayon etishiga muhit yaratishi lozim. Bu bilan bolada jamiyatda ham o‘z fikrini bayon eta olish qobiliyati shakllanadi. Bundan tashqari o‘qituvchi darsni monolog tarzida emas, balki, bahs, munozara va sog‘lom raqobat tarzida olib borilsa o‘quvchilargayam qiziqarli bo‘ladi.

**Tadqiqot metodlari.** Ushbu maqolada quyidagi metodlardan faol ravishda foydalanildi. Talab - tajribada juda keng tarqalgan usul bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo‘lish yo‘li bilan yoki bu xatti-harakatlarning rag‘batlantirilishi yoki to‘xtatilishini ta‘minlaydi.

U pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning boshlang‘ich usuli bo‘lib, tarbiyalanuvchilarda o‘ziga nisbatan mas‘uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Istiqbol - ta‘sir ko‘rsatishniig juda ta‘sirchan usuli bo‘lib, u bolalarning xatti-harakatlarini, ular oldiga qo‘yilgan maqsadlar, ularning shaxsiy intilishlari,

qiziqishlariga aytiladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Ko'pincha o'qituvchining yuqori sinf o'quvchilari bilan aloqasi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bir xil printsiplarga asoslanadi. Bunday munosabatlar o'smirning yosh xususiyatlariga mos kelmaydi, birinchi navbatda, uning o'zi haqidagi g'oyasi — kattalarga nisbatan teng mavqega ega bo'lish istagi yotadi. Mojaroni muvaffaqiyatli hal qilish uchun o'qituvchi yuqori sinf bolalari bilan munosabatlarning yangi turiga o'tishda o'quvchilarning ruhiy tayyorgarligini ta'minlash kerak. Bunday munosabatlarni qurishning tashabbuskori kattalar bo'lishi kerak. Professor V. I. Juravlev rahbarligida o'tkazilgan maktab o'quvchilari o'rtasidagi so'rovnoma ko'ra, talabalarning 80 foizi bir yoki bir nechta o'qituvchilarga nisbatan nafratda ekanligi holati kuzatilgan. Ushbu munosabatlarning asosiy sabablari sifatida o'quvchilar quyidagilarni aytadilar:

- o'qituvchilar bolalarni yaxshi ko'rmaydi — 70%;
- o'qituvchining salbiy shaxsiy fazilatlar-56%;
- o'qituvchi tomonidan o'z bilimlarini nohaq baholanishi-28%;
- o'qituvchi o'z mutaxassisligiga ega emas-12%.

**Natija va muhokama.** Nimaga o'rgatish: a) Im-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish; b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish; v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish; g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish.

Kimni o'rgatish: a) o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash; v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariig dalillari, fikrlarini hisobga olish; g) o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; d) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish: a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hksobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishniig asosiy usullari - bu talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Rag'batlantirish va jazolash o'quvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi. Jamoatchilik fikri - tarbiyalanuvchilarning

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borshini ta'minlaydi.

O'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari: ishontirish, ta'sir qilish, o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish.

Ishontirish pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda o'quv axboroti, ijodiy suhbatlar, munozaralar, siyosiy axborotlar shaklida qo'llaniladi.

Ta'sir qildirish kishi psixikasiga nazoratsiz kirib, uning faoliyatida xatti-harakatlar, sabablar, intilishlar bilan amalga oshiriladi. Ta'sir qilish shunday bir psixik ta'sir ko'rsatishki, kishi uni ongining etarli nazoratisiz idrok etadi.

a) pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va umumlashtirish, usullarni qo'yish;

b) o'kuvchilarga yakka individual holda munosabatda bo'lish, ularni mustaqil ishlarini tashkil etish.

O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotida quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi lozim: tashqi qiyofani nazorat qilish, nutqni egallash, pedagogik munosabat madaniyatini egallash, tashkilotchilik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallash.

Munosabatlarni boshqarish uslublari:

1. Avtoritar uslub: - o'zi yakka holda guruh faoliyatini yo'nalishini belgilaydi;

- o'zi ko'rsatma-buyruq beradi;

- javobgarlikni o'z bo'yniga oladi;

- so'zsiz bo'ysuninshni da'vo etadi;

- qattiq intizomni talab etadi;

- aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi;

- gap qaytarganni, gap o'rgatganni yoqtirmaydi. Aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi. So'zlari qattiq va qo'pol. Biron bir masalani tushuntirmaydi, lekin talab etadi;

- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: buyruq, ko'rsatma berish, qo'llanma bilan ishlash, xayfsan e'lon qilish;

- muomalada qo'pol, dag'al, do'q-po'pisali majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi;

- avtoritar uslubning ijobiy tomoni favqulodda vaziyatlar ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinda).

Munosabatning bu uslubda boshqarilishi atrofdegilar uchun qiyin yoki og'ir ahvol.

2. Demokratik uslub: - jamoa fikriga tayanib ish olib boradi;

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

- jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi;
  - boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi;
  - muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos maslahat berish, samimiy muomala.
- 3.Liberal uslub: - tashabbusiz, jamoa ishiga aralashmaydi, hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi;
- bolalarga e'tiborsiz, beg'am qaraydi o'z ishiga sovuqqon.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda quyidagi munosabat turlari ko'rsatilgan:

- hamkorlikdagi munosabat;
- bivosita munosabat;
- do'stona munosabat,
- nosamimiy munosabat;
- oraliqdagi munosabat;
- bekorchi munosabat;
- qo'rquv orqali munosabat;
- dialog va monolog.

Muammoli xulq -atvorining motivlari. Intizomni buzgan o'quvchi bu xatti -harakat noto'g'ri ekanligini tushunadi, lekin u o'z xulq -atvorining motivini tushunmaydi. Har bir bola uchun bu xatti -harakatning turli sabab maqsadlari mavjud. Pedagoglar bu motivlarning qanday bo'lishiga qaramay ularga ta'sir etish usullarini topishlari zarur. Agar pedagoglar xulq -atvorining buzilish maqsadlarini aniqlashga qodir bo'lsalar, u holda o'quvchi bilan konstruktiv munosabatlarini o'rnata oladilar, unumsiz muloqat samarali muloqatga aylanishi mumkin. Bunda strategiyani tanlash qadamma-qadam muammoning yechimini toppish imkonini beradi. Bunday vaziyatga pedagogik aralashuv natijasida shunday sharoitlar yaratiladiki, bolalar o'z intizomlarini to'g'irlash borasidagi ma'lum qaror qabul qiladilar. O'quvchilarning xulq borasidagi tanlo'vi, uning yomon xulq atvorining maqsadi o'qituvchi tomonidananiqlanishi va inobatga olinishiga bog'liq. Har bir o'qituvchi o'quvchiga o'zini maktab hayotining to'liq ishtirokchisi ekanligini anglashiga yordam berishi lozim . Bu borada pedagogga mazkur muammoga individual yondashish bo'yicha amaliy reja tuzish tavsiya etiladi. Bu reja o'quvchining xulq- atvoriga samarali ta'sir etishning usulidan iboratdir. Rejani tuzishda o'qituvchi o'zining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Albatta bunda vaqt va vaziyatni tahlil etish talab etiladi, lekin natijalar o'zini oqlaydi. O'qituvchining qarashlari, ya'ni

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

ustanovkasi o'zgaradi, xavotirlik yo'qoladi, avvallari muammoli o'quvchidan faqatgina yomon xul-atvorni kutgan bo'lsa, endi yutuqqa erishishga ishonchi komil bo'ladi. Ushbu rejani quyidagilar tashkil etishi mumkin

- yomon xulq - atvorning sababini aniqlash
- uni bartaraf etish usullarini tanlash
- o'quvchini qo'llab - quvvatlashning kelgusi taktikasini ishlab chiqish
- muammoni hal etishga ota onalarini va pedagoglarni jalb etish.

Muammoni xulq - atvorni xolisona izlash barcha o'qituvchilarga o'quvchining xulq - atvorini izlashda xolislik yetishmaydi. Intizomni buzganda o'quvchi aynan nimalar qilishi hissiyotga berilmay qisqa izlanish kerak. U juda yomon bola, uning fikri tarqoq, parishonxotir, uni boshqarish juda qiyin kabi izohlar o'quvchiga berilgan noto'ri bahosi hisoblanadi. Bu izohlar izohlar o'quvchining xulq - atvoriga berilgan baho bo'lmay, balki ayrim o'qituvchilarning o'quvchilar xulq - atvorini tuzatishda natijaga erisha olmaganligini bildiradi . lekin bitta o'quvchi hamma o'qituvchilarga nisbatan ham bunday xatti - harakatni amalga oshirmaydi. Yomon xulq - atvorning o'z sababini tushunib olish. Atrofdagilarning o'ziga e'tiborini xohlaydigan o'quvchilar o'zlarini xuddi haqiqiy artistlarday tutadilar va ko'p hollarda bunday xulq - atvorning sababi shu ho'ladi. shunday bolalar borki, ular yoki butun sinfni jonlantirishlari mumkin yoki aksincha barcha ishlarni juda sekinlikda amalga oshiradilar. Bunday bolalarni barcha ishlarda faol bo'ladiganlarga nisbatan tuzatish qiyinroq kechadi, chunki ular intizomni deyarli rasman buzmaydilar. E'tiborga bo'lgan ehtiyoj psixologik jarayon bo'lib , ovqat va suvdek zarur. Uydagi e'tiborning kamligi uning maktabdagi xulq - atvoriga ta'sir etadi. Bunday bolalar ijobiy muloqot qilishni bilmaydilar. Pedagogdan bunday o'quvchilarga imkon qadar ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi. Ular o'zlarini ko'rsatish uchun turli usullarda foydalanadilar, ya'ni barcha ishlarning aksini qilishga, masalan, nazorat ishini hammadan keyin bajaradilar yoki umuman topshirmaydilar sinf oldida o'qituvchining obro'siga putur yetqazadigan so'zlarni aytadilar. Shunday o'quvchilar ham bor bir qaraganda juda intizomli, xushmomila bo'lib ko'rinadilar, lekin o'zlari xohlagan ishni qiladilar , diqqatlarining tarqoqligi va xotiraning pastligi, jismoniy holatlari bilan o'larini oqlaydilar. Ular o'zlaridan kattalarga bo'ysunishga tartib qoidalarga rioya qilishni to'liq anglab yetmaydilar. Agar o'qituvchi bunday o'quvchidagi xarakterni tuzatishga erishsa, bunday bolalardan shaxsiy liderlar va mustaqil fikirlash qobiliyatlari shakillanadi. Ular musaqil fikirlashni, qaror qabul qilishni, o'z hayotlarini nazorat qilishni hohlaydilar. Murakkabligi tomoni shundaki, bunday tomonlarni ular

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

boshqalarga ham nisbatan qo'llashga, ularni boshqarishga ham harakat qiladilar. O'quvchi intizomini buzganda aynan qanday hatti -harakatni amalga oshirishi, qanday vaziyatlarda buni qilayotganini qayd etish va nima uchun bunday qilayotganini aniqlash muammoli xulq - atvorni xolisona izohlash imkonini beradi. Etibor va birinchilikni talab qilayotgan bolaalr o'ta yoqimli va xushmomila bo'lishadi . Nojo'ya xatti - harakatlarni qasd olish maqsadida amalga oshiradiga o'quvchilar esa agressiv, xo'mraygan, jahldor bo'ladilar. O'zingizning salbiy his - tuyg'ularingizni nazorat qilingan. O'quvchi bizning ayni vaziyatda unga jahllarsak, g'azabimizni bildirsak, bunga javoban o'zini qasdma - qasd yomon tutishi mumkin. O'quvchilarning aybini xatti - harakatlarini butun sinf oldida emas, balki darsdan so'ng bir o'zi bilan muhokama qiling. O'quvchiga do'q - po'pisa qilish, baqirish , uni ayiblash kabi agressivlikni namoyon qilmang. Ular bu hatti - xarakatni sizga nisbatan ham, qo'llashi mumkin deb tushinadi. O'quvchilar odatda o'qituvchining barcha aytganini o'zlari hohlagandek, ya'ni afllarini bujmaytirib, shoshmasdan, bajaradilar. Agar o'qituvchi bunga ahamiyat bermasa, o'quvchi o'z o'zidan qoidalarga bo'sunishi mumkin, ular o'rtasidagi qarama - qarshilik paydo bo'lmaydi. Ko'p hollarda bolaning namoyishkorona xulq - atvorini to'xtatishning eng samarali usuli - unga ahamiyat bermaslik. Ko'zlar orqali aloqa o'rnatish . O'quvchiga razm solib qarab turing, ko'z qarashingiz orqali o'quvchi sizni uning xatti -harakatidan norozi ekanligingizni tushunadi. Hech qanday qarashlarsiz va so'zlarsiz uning yoniga kelib turing. Bolaalr nimanidir noto'g'ri qilayotganlarini tushunadilar va ularni yoniga yaqinlashishingiz zahotiyoyq nojo'ya harakatlarini to'xtatadilar. Dars davomida darsni buzmoqchi bo'lgan bolani dars mavzusiga bog'lab aytib o'ting. U tinchlanish kerakligini shu zahoti tushunadi . Yozma tarzda ogohlantiring. Ba'zida, hoziroq bas qiling deb baqirgizingiz keladi. Lekin buni boshqa tarzda aytish mumkin, Lola, men darsni tushuntirayotganimda seni gaplashib o'tirishing mening hayolimni chalg'itadi, iltimos gaplashma, deb murosaga kelish o'zaro konfliktni keltirib chiqarmaydi. Ta'lim va tarbiya jarayoni, har qanday rivojlanish kabi, qarama-qarshiliklar va nizolarsiz mumkin emas. Shuningdek hozirgi kunda ham bunday nizolar yo'q deb ayta olmaymiz. Ijtimoiy soha olimlarining fikriga ko'ra o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ziddiyatlar quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- o'quvchining harakatiga yutuqlariga va o'qishdan tashqari topshiriqlarning bajarilishiga
- o'quvchining maktab va maktabdan tashqari qoidalariga amal qilmasligi
- muomala, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxsiy-emotsional muhitga

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi nizo o'quvchining ta'lim vazifasini bajarishdan yoki uning yomon bajarilishidan voz kechishida namoyon bo'ladi. Bu turli sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin: charchoq, o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchilik va ba'zan o'quvchiga aniq yordam berish o'rniga o'qituvchining muvaffaqiyatsiz so'zlari. Bunday nizolarga ko'pincha o'quvchining darsni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelganda, shuningdek, o'qituvchi qisqa vaqt ichida sinfda dars berganida va u bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar o'quv ishlari bilan cheklanganda sharoit yaratiladi. Bunday holatlar boshlang'ich sinflarda kam uchradi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni xarakterini bilishi va darsdan tashqari qayg'urishi bilan ajralib turadi.

Pedagogik holat, agar o'qituvchi o'quvchining harakatini tahlil qilishda xato qilsa, uning sabablarini aniqlamagan yoki asossiz xulosa chiqargan bo'lsa, ziddiyatga olib kelishi mumkin. Axir, xuddi shu harakatlar turli sabablarga ko'ra belgilanishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning xatti-harakatlarini o'zgartirishga harakat qiladi. Lekin o'quvchi buning sababini to'liq tushuna olmay, o'zicha fikr yuritadi. O'qituvchi esa tushuntirib o'tirmasdan tartibga amal qilishini talab qiladi. O'quvchi esa tushunmaganligi uchun o'qituvchida to'la asos yo'q deb hisoblaydi.

## **Xulosa va takliflar.**

O'qituvchi nizolashishda o'z pozitsiyasini to'g'ri aniqlay olishi kerak. Agar sinf jamoasi uning tarafida ishlayotgan bo'lsa, unda bu vaziyatdan eng yaxshi yo'lni topish osonroq bo'ladi. Agar sinf intizomni buzuvchi o'quvchi bilan bir xil o'ylasa bu salbiy oqibatlariga olib keladi (masalan, nizolar surunkali hodisa bo'lishi mumkin). Vaziyatdan yaxshi chiqish uchun o'qituvchi o'zining ota-onasi bilan munosabat o'rnatishi kerak. Hozirgi zamonda o'quvchilar turli manbaalar orqali mustaqil bilim olishlari va o'rganishlari mumkin. Ota-onasi yoki repititor tomonidan oz bo'lsada bilimga ega bo'lishi mumkin. Fanni o'qituvchichalik yaxshi bilmasada, bir qismini o'rganib olib ana shu mavzu bo'yicha o'qituvchi berayotgan bilimni taqqoslashtiradi. Agar o'qituvchi sayoz bilim bersa yoki xato aytsa buni sezgan o'quvchida o'qituvchiga nisbatan hurmat yo'qoladi. Buni albatta yonidagi sinfdoshlariga aytib maqtanadi. Bu esa umumiy holda darsga quloq solmaslik va fanni xurmat qilmaslik, oxir-oqibatda fanni o'zlashtirish istagining yo'qolishiga olib keladi. Ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarining yana bir omili bu yashash sharoitining yaxshi emasligi. Agar o'qituvchi stress holatida bo'lsa o'quvchiga nisbatan adolatsiz hatt harakat qilishi, o'zi bilmagan holda yuqoridagi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. O'quvchida yomon turmush tarzi bo'lsa nafaqat

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 11. November 2024**

o'qituvchi balki yon atrofdagi hamma bilan ziddiyatli holat va og'ir psixologik jarayon holat yuzaga kelishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullaeva Q.A, Safarova R.g', Bikbaeva N.U, Baxramov.
2. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Boshlang'ich ta'lim jurnali № 6-1998 y.
3. Abdullaeva q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.
4. R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" T.: Ili-Ziyo 2009 y.
5. O'zbekiston Respublikasining «Boshlang'ich sinf tarbiya va sport to'g'risida» qonuni (Yangi taxrirda). 2000.



**Research Science and  
Innovation House**